



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGINING BUYRUG‘I

18-dekabr 2024-yil.

23-237-son

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-81-son hamda 2022-yil 11-maydagi “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-240-son qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 829-sonli qaroriga muvofiq, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishga qaratilgan tadbirlarni yanada takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti **1-ilovaga** muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha nizom **2-ilovaga** muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligida Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizom **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2023-yil 10-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 129-son

buyrug'ining 1-bandi birinchi va ikkinchi xatboshilari hamda 1 va 2-ilovalar o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

3. Iqtisodiyot va moliya vazirligi markaziy apparati, vazirlikning hududiy bo'linmalari, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar rahbarlari:

bir hafta muddatda xodimlarini mazkur buyruq bilan tanishtirilishini ta'minlasin;

besh kun muddatda o'zlari qabul qilgan buyruqlarni **ushbu buyruq talablariga muvofiqlashtirsin.**

4. Tashkiliy ishlar va ijro intizomi boshqarmasi (F. Xamdamov) bir kun muddatda mazkur buyruqning mas'ul ijrochilarga yetkazilishini ta'minlasin.

5. Mazkur buyruqning ijrosi nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir



D. Kuchkarov